26-MAY

2023

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Toshkent davlat stomatologiya instituti

# TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed

CYBERLENINKA

Google

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES

ARES

www.ares.uz

Toshkent tibbiyot akademiyasi

www.tma.uz

Toshkent davlat stomatologiya isntituti

www.tsdi.uz

"Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida Ijtimoiy fanlarni o'qitishning dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2023-yil 26-mayda Anjumanda Rostov davlat tibbiyot universiteti, X.A.Yassaviy nomidagi Xalqaro qozoq-turk universiteti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, O'zbekiston Milliy universiteti va boshqa xalqaro hamda respublikaning nufuzli oliy ta'lim muassasalari hamkorligida tashkil etilgan konferensiya asosida tayyorlangan bo'lib, ushbu to'plam tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida Ijtimoiy fanlarni o'qitishdani muammolariga bag'ishlgan.

Keltirilgan dalillar, iqtiboslar va statistik ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun maulliflar mas'uldirlar.

**Toshkent - 2023**

**Bosh muharrir:** t.f.d., professor A.Q.Shadmanov

**Tahririyat a'zolari:** professor F.L. Azizova, t.f.d., professor Sh.A. Boymurodov, professor S.D. Norqulov, professor Z.M. Muxamedova, professor D.T. Norqulov, professor U.M. Abilov, dotsent F.S. Atamuratova, dotsent S.G. Alimova

"TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI, 2023-yil 26-may.

# MENEJMENT FANINING YUTUG' VA KAMCHILIKLARI

**Shaxriyor Abduraxmanov**
Toshkent tibbiyot akademiyasi "Menejment: sog'liqni saqlash menejmenti yo'nalishi"ning 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Sabohat G'ozievna Alimova**
Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi

## ANNOTATSIYA

Menejment (inglizcha: management) — boshqarish, tashkil etish, nazorat qilish) — maxsus boshqarish faoliyati va boshqarish to'g'risidagi fan. Menejmentning holati ishlab chiqarish samaradorligiga ya'ni ishlab chiqarish rentabelligiga , texnika va texnologiya darajasi hamda ishchi kuchining sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Menejment fanining mazmuni boshqaruv tizimi va boshqaruv obyekti orasidagi o'zaro munosabat bo'lib, uning asosiy vazifasi boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik san'ati sirlarini o'rganishdan iborat.

**Kalit so'zlar**: Boshqaruv faoliyati, ilmiy boshqaruv, yaratuvchilik menejmenti, menejmentning yutug'lari, kanban usuli, muvozanatni ta'minlab boshqarish, menejmentning kamchiliklari.

# ДОСТИЖЕНИЯ И НЕДОСТАТКИ НАУКИ УПРАВЛЕНИЯ

**Шахрияр Абдурахманов**
Студент 2 курса направления "Менеджмент: управление здравоохранением" Ташкентской медицинской академии

Научный руководитель: **Сабохат Газиевна Алимова**
доцент кафедры Общественных наук Ташкентской медицинской академии, кандидат экономических наук

## АННОТАЦИЯ

Менеджмент (англ. management) — управление, организация, контроль) — специальная управленческая деятельность и наука об управлении. Состояние управления

влияет на эффективность производства, то есть на рентабельность производства, уровень оснащенности и технологии, качество рабочей силы. Содержание науки управления составляет взаимодействие системы управления и объекта управления, а ее основной задачей является изучение современных методов управления, секретов искусства руководства.

**Ключевые слова:** управленческая деятельность, научный менеджмент, креативный менеджмент, управленческие достижения, метод канбан, сбалансированное управление, недостатки управления.

Boshqaruv — tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat etish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha bo'g'inlarda ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvchilarni ya'ni menejerlarni tayyorlashdan iborat. Menejmentning holati ishlab chiqarish samaradorligiga ya'ni ishlab chiqarish rentabelligiga, texnika va texnologiya darajasi hamda ishchi kuchining sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Menejment fanining mazmuni boshqaruv tizimi va boshqaruv obyekti orasidagi o'zaro munosabat bo'lib, uning asosiy vazifasi boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik san'ati sirlarini o'rganishdan iborat.

Menejment ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy, kibernetika va boshqa fanlar bilan aloqadordir. Menejment dastavval iqtisodiy nazariya fani bilan yaqindan bog'liq. U iqtisodiy qonunlarni bilib olishga va ularga mos ravishda boshqarish jarayonida iqtisodiy usullarni qo'llashga, har bir xodimga va jamoaga ta'sir ko'rsatishga asoslanadi. Asrimizning 60-yillarida menejment amerikacha boshqaruv deb tushunilgan, keyinchalik "ilmiy boshqaruv" deb yuritila boshlangan. AQSHda hozirgi zamon boshqaruvini asr boshida vujudga kelgan deb hisoblashadi va Teylor nomi bilan bog'lashadi. Teylor "boshqaruv aniq qonun va qoidalarga tayanadigan haqiqiy ilm" degan edi. 30-yillarda esa "inson omili", "odamlar o'rtasidagi munosabatlar", "industrial sotsiologiya", "guruh bo'lib masalani hal etish", "muvozanatni ta'minlab boshqarish", keyinchalik "inson munosabatlari doktrinasi" yuzaga keldi. Boshqaruv ilmining amerikalik namoyandalari hozirgi davrni "ilmiy menejment" davri deb ta'riflaydilar Barcha ijtimoiy muammolarni, iqtisodni rivojlantirish yo'lidagi hamma qiyinchiliklarni agar ularga ishbilarmonlik ruhida yondashilsa, "yaratuvchilik menejmenti" orqali oson hal etish mumkin.

Ilmiy atamashunoslikda menejment deganda shunday ijtimoiy-iqtisodiy jarayon tushuniladiki, uning natijasida o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga firma resurslariga rahbarlik qilish orqali erishiladi. Yaponlar boshqaruvni avvalo to'la berilib ishlash, agar kerak

bo'lsa, o'zini qurbon qilishga ham tayyor turish, deb tushunadilar. O'zini boshqaruvga bag'ishlagan inson hurmatga sazovor bo'ladi va jamiyatda mas'uliyatli, shu bilan birga sharafli o'rin egallaydi. "Kanban" usuli yaponlarga tegishli bo'lib, boshqaruv ilmi tarixida eng samarali hisoblanadi. U ishlab chiqarishning uzluksiz harakatini ta'minlovchi boshqaruv tizimi sifatida xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirib, iste'molchilarga yetkazib berishni ta'minlaydi. Xodimlarni tanlash va ishga yollash mahoratini baholash va attestatsiyadan o'tkazish, o'qitish va malakasini oshirish, ular oldiga aniq maqsad va vazifalar qo'yish, lavozimlarni almashtirib turish (rotatsiya) yapon menejmentining o'ziga xos xususiyatlaridandir. Boshqaruv yuqori saviyada olib boriladigan korxonalarda intizom, unumdorlik, daromad (foyda) yuqori va aksincha sarf-xarajat, kamchilik, nuqsonlar oz bo'ladi.Bu o'z navbatida esa menejmentning yutug'lari hisoblanadi.Menejment fanining kamchiliklariga keladigan bo'lsak, hozir XXI-asr bo'lishiga qaramasdan boshqaruv faoliyatida XIV-XX asr mobaynidagi boshqaruv ya'ni menejment usullari va tizimlari , boshqaruv texnologiyalari ayrim davlatlarda hali hanuzgacha qo'llanilib kelinmoqda. Nafaqat boshqa mamlakatlar boshqaruv tizimida balki , boshqaruv faoliyatiga tayyorlaydigan menejment fani yangilanmasdan hali hanuzgacha eski adabiyotlardan foydalanib kelinmoqda.

Bu esa menejment fanning eng katta kamchilikaridan biri sanaladi. O'zimizni mamlakatimizni misol keltiradigan bo'lsak, menejment yaqindagina kirib keldi . Jumladan bizni soha Sog'liqni saqlash menejmentidir. Bu sohada biz asosan boshqaruv faoliyatini o'rgatadigan kitoblarimizdagi ma'lumotlar eskidir. Shu sabali biz rivojlangan mamlakatlardagi boshqaruv faoliyati haqida boshqa tillardagi zamonaviyroq kitoblardan ma'lumot olamiz. Kitoblarni o'zaro taqqoslaganimizda ular bilan bo'lgan farq osmon bilan yercha. Bu menejment fani amon bilan hamnafas bo'lishi kerak .Chunki texnologiyalar yangilanadi, xodimlarni iqtisodiy salohiyati oshadi. Shu sababli menejment fanining kamchiliklari to'g'irlansa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Boshqaruv avvalo bajariladigan ishlarning hajmi va turini aniqlash, xodimlar o'rtasida taqsimlash, resurslarni yetkazib berish, hisob-kitob va moliyaviy natijalarni shakllantirish, ulardan foydalanishni kuzatib borish va nazorat qilish demakdir.

## REFERENCES

1. D. Qosimova. Menejment nazariyasi (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv -metodik birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan

o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. 2007-yil 28-avgust 177-sonli buyrug'i asosida berilgan. 1189-sonli guvohnoma asosida tavsiya etilgan). - T., Иқтисодиёт, 2012. - B.6
2. N.Q.Yo'ldoshev. Menejmentga kirish ( O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya berilgan )-T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. -B.18
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Menejment
4. https://accountlearning.com/advantages-and-disadvantages-of-scientific-management/
5. https://studycorgi.com/scientific-management-theory-strengths-and-weaknesses/
6. https://tyonote.com/scientific_management/

**27.** Turdimurodov, B. Q. (2023). NOAN'ANAVIY TAQDIMOTLAR YARATISH. ELEKTRON DARSLIKLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 135-138.

**28.** Abduraxmanov, S. (2023). MENEJMENT FANINING YUTUG' VA KAMCHILIKLARI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions* , *4*(1), 139-142.

**29.** Бердиева, Н. А. (2023). СПЕЦИФИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОКОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 143-148.

**30.** Бобоева, З. Н. (2023). ИЖТИМОИЙ ҲАЁТДА ВА ТАЪЛИМДА ТИББИЙ ЭКОЛОГИЯНИНГ АҲАМИЯТИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 149-152.

**31.** Ермахаматов, У., & Сайдикаримова, К. (2023). РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ НАУК В ВЫСШЕМ МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 153-155.

**32.** Мадиярова, Ф. У. (2023). ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ УПРАВЛЕНИЯ И ДОСТИЖЕНИЕ ПОСТАВЛЕННЫХ ЦЕЛЕЙ В ИЗУЧЕНИИ ПРЕДМЕТА МЕНЕДЖМЕНТ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 156-158.

**33.** Аскарова, Н. А. (2023). РОЛЬ ГУМАНИТАРНЫХ ДИСЦИПЛИН В ГУМАНИЗАЦИИ МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 159-164.

**34.** Сахновская, Е. Г., & Чемезов, С. А. (2023). АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРЕАТИВНОСТИ У СТУДЕНТОВ С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ (НА ПРИМЕРЕ ТЕРМЕЗСКОГО ФИЛИАЛА ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ). *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 165-169.

**35.** Эрназаров, Д. З. (2023). ИЖТИМОИЙ ХИЗМАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИЩДА МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР УЙҒУНЛИГИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 170-174.

**36.** Berdiyeva, X. X., & Shokirova, F. J. (2023). TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIGA IJTIMOIY FANLAR O'QITILISHI MUHIMLILIGI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 175-178.

**37.** Choriyev, N. X. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA G'AMHO'RLIK VA E'TIBORNING ISTIQBOLI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 179-183.

**38.** Bozorov, S. I. (2023). NMDA RETSEPTORINING SOG'LOM VA ALKOGOL ISTE'MOL QILUVCHI INSONLAR XOTIRASIGA TA'SIRI BIOETIKA MISOLIDA. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 184-185.